

TALABANING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI VA UNING BILISH FAOLIYATINI FAOLLASHTIRISH

Po'latova Nigora G'uzorqulovna

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21774216>

Annotatsiya. Mazkur maqolada talabalik davrining ijtimoiy-psixologik va psixofiziologik xususiyatlari, talabalarining oliy ta'lim muhitiga moslashuv jarayoni hamda ularning bilish faoliyatini faollashtirish masalalari tahlil qilingan. Talabalik yoshi shaxsning kasbiy, intellektual va ijtimoiy jihatdan shakllanishida muhim bosqich ekanligi yoritilgan.

Kalit so'zlar: talabalik davri, talaba shaxsi, psixologik xususiyatlar, bilish faoliyati, bilish faolligi, o'quv motivatsiyasi, kasbiy moslashuv, ijtimoiy-psixologik moslashuv, dezadaptatsiya, mustaqil ta'lim, intellektual rivojlanish, ijodiy tafakkur, kasbiy shakllanish, pedagogik shart-sharoitlar.

Talabalik yoshi oliy ta'lim rivojlanishi bilan bevosita bog'liq bo'lgan ijtimoiy-psixologik hodisadir. K.D. Ushinskiy bu yosh davrini «eng hal qiluvchi davr» deb atagan. Chunki aynan shu bosqich insonning kelajagini belgilab beradi hamda o'z ustida faol va izchil ishlashning eng sermahsul davri hisoblanadi va talabalar — bilim va kasbiy ko'nikmalarni maqsadli hamda tizimli ravishda egallab borayotgan, ta'lim darajasi yuqori, madaniy qadriyatlarni eng faol o'zlashtiruvchi va bilish motivatsiyasi yuqori bo'lgan shaxslardir.

Talabalik yillari inson hayotining o'ziga xos bosqichidir. Buning asosini oliy ta'lim muassasasida muayyan mutaxassislikni egallash maqsadi bilan bog'liq bo'lgan ta'lim jarayoni, uning vazifalari va eng muhimi, talabaning kasb egallashga qaratilgan ichki motivatsiyasi tashkil etadi.

Ayniqsa, birinchi kurs talabalari uchun bu davr ancha murakkab kechadi. Maktabni tugatish bilan oliy ta'lim muassasasida o'qishni boshlash oralig'idagi vaqt juda qisqa bo'lganligi sababli, aynan shu davrda avvalgi maqsadlarni qayta ko'rib chiqish, hayotiy qarashlar, odatlar va xulq-atvorni chuqur qayta baholash talab etiladi. Buning natijasida yangi ijtimoiy rollarni bajarishga yordam beradigan, mustaqillik, izlanuvchanlik, tashabbuskorlik kabi muhim shaxsiy sifatlar shakllanadi. Shu bilan birga, talaba yangi muhitga — guruhdoshlarga, mutaxassislik fanlari o'qituvchilariga, bilimni baholash va hisobot berishning turli shakllariga, shuningdek, atrofdagilar nazaridagi o'z o'rniga moslashish bilan bog'liq qator qiyinchiliklarga duch keladi.

Ta'lim jarayoni bilan rivojlanish o'rtasida yoshga qarab o'zgarib boradigan murakkab va dinamik o'zaro bog'liqlik mavjud. L.S. Vygotskiy ta'kidlaganidek, rivojlanish jarayonlari ta'lim jarayonlari bilan bir vaqtda kechmaydi, balki ularning ortidan rivojlanib boradi. Olim «yaqin rivojlanish zonasi» tushunchasini ilgari surgan bo'lib, u talabaning muayyan rivojlanish bosqichida mustaqil emas, balki o'qituvchi rahbarligi va ko'magida bajara oladigan vazifalar doirasini anglatadi. Vaqt o'tishi va talabaning bilish qobiliyatlari rivojlanishi natijasida ushbu vazifalarni u mustaqil ravishda bajara oladigan darajaga yetadi.

B.G. Ananov hamda u rahbarlik qilgan olimlar guruhi tomonidan olib borilgan tadqiqotlar insonning yetuklik davridagi psixofiziologik rivojlanishi turli xil va ziddiyatli xususiyatga ega ekanligini, u bir-biri bilan o'zaro bog'liq bo'lgan murakkab jarayonlar tizimidan iboratligini isbotlaydi. Inson xulq-atvori va intellektining yetuk, shakllangan tuzilmalari barqarorlashishi hamda organizmning biologik yetilish jarayoni yakunlanishi oralig'ida eng chuqur ijtimoiy va psixofiziologik o'zgarishlar sodir bo'ladi.

Rivojlanish tuzilmasining asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardir: faoliyatning turli mexanizmlari funksional darajasining oshishi, ularning barqarorlashuvi va keyinchalik pasayishi. B.G. Ananayev tajriba natijalari asosida inson psixofiziologik funksiyalari rivojlanishining tuzilmasini tahlil qilib, hayotning qaysi yillarida funksional darajaning ko'tarilishi, barqarorlashishi va pasayishi kuzatilishini aniqlagan.

Talabalik yoshiga diqqatning barqarorligi, tasavvurning yaxshi rivojlanganligi hamda xotiraning yuqori darajada integrallashganligi xosdir. Aynan shu davrda shaxs va uning xulq-atvor uslubi jadal shakllanadi. Ko'pchilik talabalar o'z oldiga katta maqsadlar qo'yadi. Shu sababli mustaqil ta'lim olish va o'z-o'zini tarbiyalash masalasi birinchi darajali ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun talabaning har qanday faoliyatini tashkil etishda uning har bir kursga o'tishi bilan o'zgarib boradigan psixologik xususiyatlarini hisobga olish zarur.

Oddiy muhitning o'zgarishi o'qish natijalaridan qoniqmaslik, shaxslararo munosabatlardagi muammolar, jamoadagi avvalgi mavqeni yo'qotish, kelajak kasbini tanlash bilan bog'liq xavotirlar tufayli yanada kuchayishi mumkin. Bu esa stress holati, asabiy charchoq, tez toliqish hamda **dezadaptatsiya** (moslasha olmaslik) holatining yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Dezadaptatsiya ichki o'zini boshqarish tizimining o'zgarishi, ruhiy holatda jiddiy og'ishlar, o'z-o'ziga zarar yetkazuvchi xulq-atvor va tajovuzkorlik kabi holatlarda namoyon bo'lishi mumkin.

Ayrim talabalarda yangi xulq-atvor stereotipining shakllanishi keskin o'zgarishlar orqali kechsa, boshqalarida bu jarayon nisbatan bir maromda rivojlanadi. Shubhasiz, bu qayta qurilish jarayoni oliy nerv faoliyati tipining xususiyatlari bilan bog'liq. Biroq mazkur jarayonda ijtimoiy omillar hal qiluvchi ahamiyatga ega. Talabaning individual xususiyatlarini chuqur bilish va shu asosda uni yangi faoliyat turlari hamda yangi ijtimoiy muhitga bosqichma-bosqich jalb etish dezadaptatsiya sindromining oldini olish, moslashuv jarayonini barqaror va psixologik jihatdan qulay kechishini ta'minlaydi.

Oliy ta'lim muassasasida ijtimoiy moslashuv quyidagi turlarga ajratiladi:

1. **Kasbiy moslashuv** — talabaning o'quv jarayonining mazmuni, xususiyati, sharoitlari va tashkil etilishiga moslashishi, shuningdek, mustaqil ta'lim va mustaqil o'qish ko'nikmalarini shakllantirishi.
2. **Ijtimoiy-psixologik moslashuv** — shaxsning talabalar jamoasiga moslashishi, unda sog'lom o'zaro munosabatlarni shakllantirishi va o'zining individual xulq-atvor uslubini rivojlantirishi.

Ko'pchilik birinchi kurs talabalari ta'limning dastlabki bosqichlarida mustaqil o'quv faoliyati ko'nikmalari yetarli darajada shakllanmaganligi sababli katta qiyinchiliklarga duch keladilar. Ular ma'ruzalarni samarali konspekt qilishni, darsliklar bilan mustaqil ishlashni, birlamchi manbalardan bilim olishni, katta hajmdagi axborotni tahlil qilishni hamda o'z fikrlarini aniq, mantiqiy va ravon bayon etishni yetarli darajada bilmaydilar. Odatda talabalarining oliy ta'lim muassasasidagi o'quv jarayoniga moslashuvi ikkinchi semestrning oxiri yoki uchinchi semestrning boshlariga kelib asosan yakunlanadi.

Psixologiya va pedagogika sohasidagi ko'plab tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ayrim talabalar yangi bilimlarni egallash ustida katta qiziqish va ishtiyoq bilan mehnat qiladilar. Bu jarayonda uchraydigan qiyinchiliklar ularning faolligini pasaytirmaydi, aksincha, maqsadga erishishga bo'lgan intilishi va g'ayratini yanada kuchaytiradi. Boshqa bir toifadagi talabalar esa o'quv faoliyatini asosan tashqi majburlash ta'sirida amalga oshiradilar. Ular uchun to'siq va qiyinchiliklar paydo bo'lishi faollikning keskin pasayishiga sabab bo'ladi.

O'quv faoliyati xususiyati hamda unga mos xulq-atvor modellariga ko'ra talabalar shartli ravishda uch tipga ajratiladi.

Birinchi tip talabalarida bilish qiziqishlari o'quv rejasi va fan dasturlari doirasi bilan cheklanmaydi. Ular oliy ta'lim muassasasi hayotining deyarli barcha sohalarida faol ishtirok etadilar hamda keng ixtisoslashuv va har tomonlama kasbiy tayyorgarlikka intiladilar.

Ikkinchi tip talabalari esa muayyan tor ixtisoslikka aniq yo'naltirilganligi bilan ajralib turadi. Ular ham o'quv dasturidan tashqari bilimlarni egallashga harakat qiladilar, ammo bu intilish keng qamrovli emas, balki muayyan sohani yanada chuqurroq o'zlashtirishga qaratilgan bo'ladi. Ularning bilish faoliyati asosan kasbiy faoliyat bilan bevosita bog'liq qiziqishlar doirasida amalga oshadi.

Uchinchi tip talabalarida bilish faolligi asosan o'quv dasturida nazarda tutilgan bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish bilan cheklanadi. Bu toifa talabalari bilish faolligi va ijodkorlik darajasining nisbatan pastligi bilan tavsiflanadi.

Oliy ta'lim muassasasiga turli hayotiy qarashlar, maqsadlar va boshlang'ich imkoniyatlarga ega bo'lgan yoshlar qabul qilinadi. Shu nuqtai nazardan, talaba yoshlarning tanlagan kasbiga bo'lgan munosabatini tahlil qilish katta qiziqish uyg'otadi. Umuman olganda, talabalar jamoasini ushbu mezon asosida ham uchta asosiy guruhga ajratish mumkin.

Birinchi guruh — ta'limni kelajak kasbining asosiy poydevori sifatida qabul qiluvchi talabalardan iborat. Ushbu guruhda kelajakdagi kasbiy faoliyatiga qiziqadigan, o'zini shu sohada ro'yobga chiqarishni eng muhim maqsad deb biladigan talabalar soni ko'pchilikni tashkil etadi. Aynan shu toifa talabalari ta'limni keyingi bosqichlarda ham davom ettirishga moyil bo'ladilar. Ular uchun boshqa omillar ikkinchi darajali ahamiyat kasb etadi.

Ikkinchi guruhni biznesga yo'naltirilgan talabalar tashkil etadi. Ularning ta'limga bo'lgan munosabati biroz boshqacha. Ular ta'limni kelgusida xususiy biznes tashkil etish, tadbirkorlik bilan shug'ullanish, savdo-sotiq sohasida faoliyat yuritish kabi maqsadlarga erishish uchun vosita yoki dastlabki bosqich sifatida qabul qiladilar. Ular vaqt o'tishi bilan mazkur sohada ham chuqur bilim va ta'lim zarurligini anglaydilar. Biroq tanlagan mutaxassisligiga qiziqish darajasi birinchi guruh talabalariga nisbatan ancha past bo'ladi.

Uchinchi guruhga kiruvchi talabalarni, bir tomondan, hayotiy va kasbiy maqsadlarini hali aniq belgilab olmagan yoshlar, ikkinchi tomondan esa shaxsiy va maishiy muammolar ta'sirida qolgan talabalar deb ta'riflash mumkin. Ular uchun maishiy, shaxsiy, turar joy va oilaviy muammolar birinchi o'ringa chiqadi. Shartli ravishda bu guruhni «hayot oqimi bilan yashovchilar» deb atash mumkin. Ular o'z hayot yo'lini aniq belgilay olmagan bo'lib, ta'lim va kasb boshqa guruhlardagi kabi ular uchun muhim qiziqish uyg'otmaydi. Ehtimol, bu toifa talabalarining kasbiy o'zligini anglashi va hayotiy maqsadlarini belgilashi keyingi bosqichlarda shakllanar. Biroq hozirgi holatdan kelib chiqib aytish mumkinki, mazkur guruhga o'z hayot yo'lini ongli ravishda tanlash va aniq maqsad sari intilish xususiyati hali to'liq shakllanmagan shaxslar kiradi.

Oliy ta'lim muassasalariga to'lov-kontrakt asosida qabul tizimi joriy etilishi natijasida moddiy imkoniyatlari keng bo'lgan, o'z ehtiyojlarini erkin qondira oladigan, tanlagan kasbining to'g'riligiga ishonuvchi hamda kelajakdagi kasbiy faoliyatining xususiyatlari haqida yetarli tasavvurga ega bo'lgan talabalar ham kela boshladi. Bunday talabalar, ko'pincha tadbirkor ota-onalarining hayotiy tajribasidan ilhomlanib, kelajakka ishonch bilan qaraydilar. Ular uchun kelajak aniq rejalashtirilgan istiqbol sifatida namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, umumiy holatda talabalarining xulq-atvorida konformizm, ya'ni jamoa va ijtimoiy muhit ta'siriga moslashish xususiyati yuqori darajada namoyon bo'ladi.

Oliy ta'lim muassasasida tahsil olish jarayonida har bir kurs muayyan vazifalarni bajaradi.

Birinchi kursda asosiy vazifa kechagina abituriyent bo'lgan yoshlarni talabalik hayotiga, jamoaviy faoliyatning yangi shakllariga moslashtirishdan iborat. Bu bosqichda birinchi kurs talabalari o'z ijtimoiy rollarini hali aniq farqlay olmaydilar.

Ikkinchi kurs talabalar hayotida o'quv faoliyatining eng sermahsul va mas'uliyatli davri hisoblanadi. Bu paytda ta'lim jarayonining barcha shakllari talabalar faoliyatiga to'liq kirib keladi. Ular umumkasbiy tayyorgarlikni egallaydilar, madaniy ehtiyoj va qiziqishlari kengayadi. Shuningdek, ta'lim muhitiga moslashish jarayoni asosan yakunlanadi.

Uchinchi kurs ixtisoslashuvning boshlanish bosqichi hisoblanadi. Bu davrda talabalarda ilmiy tadqiqot ishlariga qiziqish kuchayadi, bu esa ularning kasbiy manfaatlarini yanada rivojlanib, chuqurlashayotganining ifodasidir. Ixtisoslashuv zarurati (chunki oliy ta'lim muassasasida shaxs shakllanishining asosiy yo'nalishlari aynan ixtisoslashuv omili bilan belgilanadi) ayrim hollarda talabaning turli sohalarga bo'lgan qiziqish doirasining torayishiga ham olib kelishi mumkin.

To'rtinchi kursda esa oliy ta'lim muassasasini yaqin vaqt ichida tamomlash istiqboli talabalarda kelajak kasbiy faoliyatiga nisbatan aniq amaliy qarashlarni shakllantiradi. Bu davrda moddiy ta'minot, oila qurish, ish joyini tanlash kabi hayotiy qadriyatlar tobora muhim ahamiyat kasb eta boshlaydi. Shu bilan birga, talabalar asta-sekin oliy ta'lim muassasasidagi jamoaviy hayot shakllaridan mustaqil hayotga o'tishga tayyorlana boshlaydilar.

Talabaning bilish faoliyatida **estetik omil** muhim ahamiyatga ega. Estetik yondashuv bilish faoliyatiga muayyan yo'nalish bag'ishlaydi, shaxsning qiziqishlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bilish faolligi, izlanuvchanlik va estetik tarbiya bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir. Biroq turli ijtimoiy tuzilmalar va manfaatlar ta'siri ostida bilish faoliyatining estetik mazmuni ma'lum darajada susayishi mumkin.

Talabalarining bilish faoliyati samaradorligi muayyan pedagogik shart-sharoitlar orqali ta'minlanadi. Bunday shart-sharoitlar deb biz ta'lim jarayonida o'zaro bog'liq pedagogik chora-tadbirlar majmuini tushunamiz. Ushbu chora-tadbirlar talabalarda axborot bilan ijodiy hamkorlik qilishga tayyorlikni shakllantirish va rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ta'lim maqsadi, vazifalari, mazmuni, shakllari va metodlarining o'ziga xosligi, shuningdek, talabalarining yosh va psixologik xususiyatlari tufayli texnika yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalari boshqa ta'lim muassasalaridan muayyan jihatlari bilan farq qiladi.

Zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy sharoit texnika oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilaridan tashabbuskorlik, muloqotga kirisha olish, yangi mehnat sharoitlariga tez moslasha bilish kabi muhim sifatlarni talab etadi. Ishlab chiqarish sohasida faoliyat yurituvchi mutaxassis katta hajmdagi axborot oqimi bilan ishlaydi. Shuning uchun u axborotni to'g'ri qabul qilish, qayta ishlash va boshqalarga samarali yetkazish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim. Bu esa shaxsning rivojlangan kommunikativ salohiyatisiz amalga oshmaydi.

Qator tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, texnika oliy ta'lim muassasalari talabalarida **verbal bo'lmagan intellekt** nisbatan yaxshi rivojlangan bo'ladi. Uning tarkibiga konstruktiv faoliyat qobiliyati, fazoviy tasavvurning yuqori darajada rivojlanganligi, formal-mantiqiy tafakkur hamda sintetik va analitik fikrlashning uyg'unligi kiradi (L.A. Baranova, L.N. Borisova, V.N. Drujinin, L.N. Sobchik).

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, texnika oliy ta'lim muassasalari talabalari diqqatni jamlash va uni bir faoliyatdan boshqasiga tez ko'chirish, ko'rish xotirasi, fikrlash operatsiyalarining tezligi va aniqligi kabi ko'rsatkichlar bo'yicha yuqori natijalarni namoyon etadilar. Shuningdek, o'qish jarayoni davomida ularda introvertlik xususiyatining kuchayishi, bilishga bo'lgan motivatsiyaning

ustunligi, mustaqillikka intilish, boshqalar ustidan hukmronlik qilishga moyillikning pastligi, ongliklik, mas’uliyatliklik, kursdoshlari bilan muloqotda hissiylik darajasining nisbatan pastligi hamda atrofdagilarga nisbatan tanqidiy munosabat shakllanishi kuzatiladi.

Texnika oliy ta’lim muassasasi talabasi uchun kasbiy shakllanishning muhim bosqichlaridan biri — intellektual qobiliyatlarning rivojlanishidir. Bu jarayonda nazariy tafakkur, abstrakt fikrlash, umumlashtirish qobiliyati sezilarli darajada takomillashadi. Shu bilan birga, talabaning bilish imkoniyatlarida sifat jihatidan muhim o’zgarishlar yuz beradi. Ularga quyidagilar xos bo’ladi:

- avvaldan ma’lum bo’lgan muammolarga noan’anaviy yondashuvni qo’llay olish;
- xususiy muammolarni kengroq va umumiy ilmiy muammolar tizimi bilan bog’lay olish qobiliyati.
- hatto yetarli darajada aniq ifodalanmagan vazifalar asosida ham samarali umumiy savollarni qo’ya olish qobiliyati.

Bilish faolligining yetarli darajada rivojlanmaganligi ma’lum darajada boshqa omillar hisobiga qoplanishi mumkin. Biroq ko’plab tadqiqotlar natijalariga ko’ra, bunday kompensatsiya, avvalo, talaba shaxsining har tomonlama rivojlanishini sekinlashtiradi. Bu esa o’z navbatida bilish faolligining pasayishiga yoki uning bir tomonlama rivojlanishiga sabab bo’ladi.

Bizning fikrimizcha, bilish faolligi juda keng ko’lamdagi vazifalarni qamrab oladi. U talabalarning ham o’quv, ham auditoriyadan tashqari faoliyatining muhim tarkibiy qismi bo’lib, ularning tanlangan mutaxassislik bo’yicha bilim doirasini chuqurlashtirish va kengaytirishga xizmat qiladi.

Eng muhimi, talabada ijodiy shaxsiy sifatlarni shakllantirish, o’rganilayotgan material doirasidan tashqariga chiqish ehtiyoji va imkoniyatini rivojlantirish, o’z-o’zini rivojlantirish hamda uzluksiz mustaqil ta’lim olish qobiliyatini qaror toptirish zarur.

Umuman olganda, bilish faolligi talabaning shaxsiy rivojlanishidagi eng muhim omillardan biri bo’lib, u dunyoqarashning kengayishi, intellektual salohiyatning yuksalishi va bilimga bo’lgan ehtiyojning ortishi bilan tavsiflanadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Stolyarenko L.D. Psixologiya asoslari. — Rostov-na-Donu: Feniks, 1997. — 736 b.
2. Ananov B.G. Talabalik yoshining psixofiziologiyasiga oid // Oliy maktabning zamonaviy psixologik-pedagogik muammolari / B.G. Ananov va N.V. Kuzmina tahriri ostida. — 2-son. — Leningrad: LGU, 1974. — B. 3–15.
3. Выготский Л.С. Асарлар то’plami: 6 jildda / A.M. Matyushkin tahriri ostida. — Moskva: Pedagogika, 1982–1984. — 3-jild. — 673 b.
4. Nikitin V.A. Ijtimoiy pedagogikaning boshlanishi: o’quv qo’llanma. — Moskva: Flinta, 1999. — 72 b.
5. E. G’oziev. *Umumiy psixologiya*.
6. E. G’oziev. *Yosh va pedagogik psixologiya*.
7. M. Davletshin. *Pedagogik psixologiya*.
8. V. M. Karimova. *Ijtimoiy psixologiya*.
9. B. R. Qodirov. *Psixologiya*.
10. N. A. Sog’inov. *Pedagogik psixologiya asoslari*.